

MUQIMIY ASARLARIDA IQTISODIY VA IJTIMOIY HAYOT.

Beknazarova Xolida Farxod qizi

Toshkent davlat Iqtisodiyot universiteti, Raqamli iqtisodiyot fakulteti,

3-bosqich talabasi

farxodrajapov1@gmail.com

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada Muhammad Aminxo'ja Muqimiy asarlarida keltirilgan XX asr ikkinchi yarmi ijtimoiy va iqtisodiy hayoti mazmuni olib berilgan.

Kalit so'zlar: Muqimiy hayoti, sud qarori, Tanobchilar satirasi, Muqimiy asarlarida tasvirlangan ijtimoiy hayot, iqtisodiy tanglik va adolatsizliklar.

O'z davrining yetuk adibi Muhammad Aminxo'ja Mirzaxo'ja o'g'li Muqimiy 1850-yili Qo'qon shahridagi Bekvachcha mahallasida novvoy oilasida tug'ildi. Otasi Mirzaxo'ja kelib chiqishi toshkentlik, onasi Bibioysha esa xo'jandlik bo'lib adabiyot va san'atni ulug'lovchi, so'zga usta ayol bo'lган. Uni yaqinlari "Xumorbibi" deb atagan. Yosh Muhammad Aminxo'janing she'riyatga ixlos qo'yishiga onasi sababchi bo'lган. U dastlab eski maktabda xat-savod chiqargach, 1864-yildan Qo'qon shahrida Nodira tomonidan qurdirilgan "Hokim oyim" madrasasada ta'lim oldi. So'ngra, 1872-1873 yillarda Qo'qon madrasasani bitirib, Buxoroga yo'l oladi. 1876-yilgacha Buxoro madrasalaridan birida tahsil olib, Qo'qonga qaytadi¹. Qo'qonga qaytgach dastlab yer o'lhash mahkamasida mirzalik qiladi. U xizmati tufayli Qo'qon va uning atrofidagi qishloqlarga tez-tez chiqishga to'g'ri kelgani uchun dehqonlarning yashash tarzi, qishloqlarning xarob ahvoli haqida bataysil ma'lumotga ega bo'ladi. Muhammad Aminxo'ja mahkamada uzoq muddat ishlamagan bo'lsa-da, shu tajribaning o'ziyoq shoirning hayoti va dunyoqarashida muhim o'rinn egallaydi. Mahkamadagi faoliyati unda mustamlaka tuzumiga va tartib-qoidalarga keskin salbiy munosabat va tanqidiy baho

¹ Muallif tomonidan www.oz.sputniknews.uz sayti ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

paydo bo‘lishiga hissa qo‘shgan edi. Muqimiy ijodida iqtisodiy hayot va jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar haqida ko‘p gapiriladi. U o‘z davridagi iqtisodiy tanglik vaadolatsizliklarni, xususan, dehqonchilik bilan bog’liq muammolarni keskin tanqid qiladi. Muqimiyning she’rlari va nasriy asarlari orqali o’sha davrdagi iqtisodiy tuzilishlardagi adolatsizliklar, xalqning qashshoqligi va hokimiyatdagisuiiste’molchiliklar fosh etiladi. Muqimiyni alohida ajratib turadigan jihatlardan biri uning oddiy xalqning hayoti va kurashlarini yoritishidir. Uning asarlaridagi qahramonlar ko‘pincha oddiy dehqonlar, hunarmandlar va mehnatkashlar bo’lib, ularning hayoti, mehnati va orzu-umidlari shoir asarlarida yorqin tasvirlangan. U shuningdek, bir yondan xalqning og’ir mehnatini, ikkinchi yondan ularning mehnat mahsuli talon-toroj qilinishini ham tanqid qiladi. Muqimiyning she’rlarida va nasriy asarlarida ijtimoiy adolat, amaldorlarning xalqni o’ylamaydigan siyosatlari, korrupsiya va boshqa ijtimoiy iqtisodiy muammolar haqida o’y-xayollarini topish mumkin. Shoир o‘z zamondoshlariga bu muammolarni anglab yetishda va ularni hal etishda yordam berish maqsadida yozgan. Muqimiy asarlari orqali o’sha payt xonliklar jamiyatidagi iqtisodiy voqeiylik va ijtimoiy hayotning haqqoniyligini o’rganish mumkin. Shoир ijtimoiy-siyosiy hajviyotning asoschilaridan biri sifatida o‘zbek adabiyoti tarixidan joy oldi. Uning bir qator hajviyalari, jumladan, “Tanobchilar”, “Voqeayi ko‘r Ashurboy hoji”, “Moskovchi boy” kabi asarlarini shu yo‘nalishning yetuk namunalari sifatida ko‘rish mumkin. Muqimiy shu kabi hajviy asarlarida mustamlaka tuzumi uchun xos bo‘lgan hayotiy mavzular — jamiyatdagijtimoiy tengsizlik, tabaqalanish, hukmonadolatsizlik kabi juda jiddiy masalalarniko‘rib chiqadi. Jumladan, “Tanobchilar” satirasini oddiy dehqon tilidan yozgan va mavjud tuzumdagijtimoiy adolatsizlik, chor ma’murlar va mahalliy amaldorlarning o‘zboshimchaliklari va zo‘ravonliklari, mustamlaka sharoitida soliq solish va undirib olish kabi hayotiy lavhalarda tarixan haqqoniytasvirlangan².

Arqonimi yeringa sudrab chiqay,
Bachchataloq qishloqilarni uray.

² Pardaev Q. Muqimiyning uch hajviyasi // Filologiya masalalari. – Toshkent, 2015. – № 2. – B. 3-7

Bir burayin mo'ylabimni chiqib,

Tort tanobini jazosi siqib!

Bu misralar orqali orqali mahalliy amaldorlarning xalqning boshiga solayotgan muammolarni ko'rishimiz mumkin. Ya'ni bunda Sulton Ali bevosita oddiy xalqni o'zining buyruqlarini bajarishga dav'at etadi. Budan Salton Ali agar xalq uning buyruqlarini va xizmatlarini yaxshi ado etadigan bo'lsa, ularning boshini silashini, aks holda esa tanobini ikki barobar ko'p ko'rsataman deb xalqni qo'rqtishga uringan. Shundog' ham iqtisodiy jihatdan qiyalgan, o'zining birlamchi ehtiyojlarini zo'rg'a qondirayotgan xalq uchun bu gaplar haddan tashqi ortiqcha edi³.

She'rlarida Muqimiy quyidagi asosiy mavzularni yoritadi:

1. Dehqonchilik: She'rlarida va nasriy asarlarida dehqonlar mehnati, yerning boy berishidagi zahmatlar va iqtisodiy qiyinchiliklar tasvirlanadi.

2. Amaldorlar va ulug'lar: Muqimiy hokimiyatdagi suiiste'molchilik va korrupsiyani fosh qiladi, xususan, amaldorlar va hukmdorlarning ko'ngilsizligi hamda iqtisodiy adolatsizliklar yuzasidan keskin e'tirozlar bildiradi.

3. Ijtimoiy adolatsizlik: She'rlarida turli ijtimoiy tabaqalarni, ulardagи adolatsizlik va iqtisodiy tengsizliklarni tilga oladi.

4. Hunarmandchilik: Hunarmandchilikning jamiyatdagi o'rmini, hunarmandlarning mehnati va ularning iqtisodiy vaziyatiga e'tibor qaratadi.

5. Mehnatkash xalqning hayoti: Muqimiy o'z asarlarida oddiy mehnatkashlar, ularning kunlik kurashlari, umidlari va tushkunliklari haqida gapiradi.

Muqimiyning asarlari orqali shu davr jamiyatidagi iqtisodiy voqeiyiliklar va turmushining real tasvirlarini ko'rish mumkin, bu esa uning adabiy merosining qiymatini oshiradi.

Muqimiy Farg'ona vodiysi bo'ylab qilgan sayohatlari taassurotlarini she'r qilib yozdi va ular "**Sayohatnomá**" nomi bilan shuhrat qozongan. Qo'qon-Farg'ona,

³ Maxmudov N.M., Avazov N.R. "Muqimiyning iqtisodiy qarashlari". Ilmiy risola. – T.: "IQTISODIYOT", 2021. – 56 bet.

Qo‘qon-Shohimardon, Qo‘qon-Isfara sayohatlari shular jumlasidandir. Har uch sayohatnama yaxlit bir asar shaklida bo‘lib, to‘rtliklardan tarkib topgan, 244 misradan iborat. Asarda sayohat maqsadi, turli manzildagi qishloqlar, ularning tabiatni, manzaralari tasvirlangan. Joylardagi odamlar fe’l-atvori, udumlar haqida batafsil hikoya qilinadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Toshkent shahridagi Adiblar xiyoboniga tashrifi chog‘ida majmuada haykali o‘rnatilgan adiblar hayoti va ijodi, boy ma’naviy merosini oliy ta’lim muassasalarini tomonidan keng o‘rganish bilan birqalikda, jamoatchilik, xalqimiz, kelgusi avlodga yetkazish kabi mas’uliyatli va sharafli vazifalar belgilab berildi⁴. Adib Toshkent davlat iqtisodiyot universitetini tomonidan shu mas’uliyatli va sharafli vazifani amalga oshirish borasida yangi innovatsion loyiha amalga oshirildi. Ya’ni Muhammad Amminxo‘ja Muqimiyy ko‘krak nishoni ta’sis etildi. Mazkur ko‘krak nishonini ta’sis etishdan asosiy maqsad Muhammad Aminxo‘ja Muqimiyy adabiy-ma’naviy merosini o‘rganish va keng jamoatchilikka targ‘ib qilish borasida universitet va boshqa oliy ta’lim muassasalarining iqtidorli, faol, bilimli va vatanparvar talabalarini moddiy-ma’naviy rag‘batlantirishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YHATI .

1. Pardaev Q. Muqimiyning uch hajviyasi // Filologiya masalalari. – Toshkent, 2015. – № 2.
2. Pardaev Q. Muqimiyy asarlarida zamon ruhi // O`zbekiston matbuoti. – Toshkent, 2017. – № 2.
3. Pardayev Q. Muqimiyy lirik asarlarining matniy-qiyosiy tahlili // Oltin bitiklar. – Toshkent, 2019. – № 1. – B. 42-60. Pardaev Q. Muqimiyy she’riyati matnida «g‘oyaviy tahrir» masalasi // Oltin bitiklar. – Toshkent, 2018. – № 1..
4. Maxmudov N.M., Avazov N.R. “Muqimiyning iqtisodiy qarashlari”. Ilmiy risola. – T.:“IQTISODIYOT”, 2021. – 56 bet.
5. www.oz.sputniknews.uz.
6. www.president.uz

⁴ Muallif tomonida www.president.uz sayti ma’lumotlari asosida tayyorlandi.